

EXTREMISM AND TERRORISM: CONTEMPORARY THREATS AND STRATEGIES TO COUNTER THEM

Saminov Shohjahon Sharifjon o'g'li

Tashkent state transport university 4th-year student in the Political Science

saminovsh2025@gmail.com

Uktamov Ulug'bek Utkir o'g'li

Tashkent state transport university 4th-year student in the Political Science

ulugbekuktamov16@gmail.com

Resume

Abstract: This article analyzes the nature of extremism and terrorism, history of origin, modern forms and impact on society. The main causes and consequences of these diseases are highlighted, and effective strategies for their prevention and control are discussed. The article also examines how extremist ideologies threaten global security and measures taken by states in this regard.

Key words: Extremism, terrorism, security, radicalism, religious extremism, political extremism, national security, international cooperation.

EKSTREMIZM VA TERRORIZM: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA ULARGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI

Rezyume

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekstremizm va terrorizmning mohiyati, kelib chiqish tarixi, zamonaviy shakllari va jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu illatlarning asosiy sabablari va oqibatlari yoritilib, ularning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha samarali strategiyalar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada ekstremistik mafkuralarning global xavfsizlikka qanday tahdid solishi va davlatlarning bu boradagi chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Ekstremizm, terrorizm, xavfsizlik, radikalizm, diniy ekstremizm, siyosiy ekstremizm, milliy xavfsizlik, xalqaro hamkorlik.

ЭКСТРЕМИЗМ И ТЕРРОРИЗМ: СОВРЕМЕННЫЕ УГРОЗЫ И СТРАТЕГИИ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ИМ

Резюме

Аннотация: В данной статье анализируется природа экстремизма и терроризма, история возникновения, современные формы и влияние на общество. Выделены основные причины и последствия этих заболеваний, а также обсуждены эффективные стратегии их профилактики и борьбы. В статье также рассматривается, как экстремистские идеологии угрожают глобальной безопасности и меры, принимаемые государствами в этом отношении.

Ключевые слова: Экстремизм, терроризм, безопасность, радикализм, религиозный экстремизм, политический экстремизм, национальная безопасность, международное сотрудничество.

Kirish. Ekstremizm va terrorizm bugungi kunda jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri boʻlib, ular nafaqat maʼlum bir hudud yoki davlat, balki butun dunyo xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va siyosiy beqarorlik ekstremistik gʻoyalarning keng tarqalishiga imkon yaratmoqda. Terroristik tashkilotlar va ekstremistik harakatlar oʻz maqsadlariga erishish uchun zoʻravonlik, qoʻrqitish, hujumlar va boshqa noqonuniy usullardan foydalanmoqda.

Ekstremizm va terrorizmning oldini olish, ularning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, shuningdek, ularga qarshi samarali kurashish choralari har bir davlat va xalqaro tashkilotning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ekstremizm va terrorizmning mohiyati, tarixiy rivojlanishi, zamonaviy koʻrinishlari va ularning oldini olish yoʻllari haqida batafsil fikr yuritiladi.

Asosiy qism. Ekstremizm va terrorizm insoniyat tarixining turli bosqichlarida turli shakllarda namoyon bo‘lib kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalardir. Ekstremizm – bu jamiyatdagi siyosiy, diniy, iqtisodiy yoki madaniy tuzumlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan radikal g‘oyalar, qarashlar va harakatlar majmuidir. U o‘zining mohiyatiga ko‘ra har qanday murosani, qarama-qarshi fikrlarni, shuningdek, jamiyatda o‘rnatilgan huquqiy va axloqiy me‘yorlarni inkor etadi. Ekstremistik mafkuralarning asosiy xususiyati – ular dunyoni “o‘zlar” va “begonalar”ga qat’iy ajratadi, mavjud tizimni butunlay yo‘q qilishni maqsad qiladi va bu yo‘lda zo‘ravonlikni asosiy vosita deb biladi. Terrorizm esa ekstremizmning eng xavfli, qurolli ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Terrorizm muayyan siyosiy, diniy yoki iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun aholi yoki mulkka qarshi zo‘ravonlik qo‘llash, qo‘rqitish, vahima tarqatish va hokimiyat organlariga bosim o‘tkazish orqali o‘z talablarini amalga oshirishga intiladi. Terrorizmning o‘ziga xos jihati shundaki, uning bevosita qurbonlari ko‘pincha davlat organlari yoki ma‘lum bir guruh vakillari emas, balki befarq fuqarolar, ayollar, qariyalar, bolalar kabi himoyasiz qatlamlardan iborat bo‘ladi.

Terror aktlari orqali nafaqat insonlar hayotiga zomin bo‘linadi, balki butun bir davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va xalqaro obro‘-e‘tiborga jiddiy putur yetkaziladi. Aynan shuning uchun ham ekstremizm va terrorizm nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat, ta‘lim tizimi, madaniyat va din vakillari birgalikda kurash olib borishi zarur bo‘lgan tizimli muammoga aylangan. Zamonaviy dunyoda ekstremizm va terrorizm chegaralarni tanimasdan, milliy, diniy va madaniy farqlarni siyosiy manipulyatsiyalar uchun vosita sifatida ishlatib, global xavfsizlikka tahdid solmoqda.

Ekstremizm va terrorizmning tarixiy ildizlari insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Qadimgi dunyoda ham diniy va siyosiy motivlar asosida zo‘ravonlik va qo‘rqitish usullari qo‘llanilganligi tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan.

Miloddan avvalgi I asrda Falastin hududida faoliyat yuritgan “sikariylar” (yunoncha “sika” – xanjar soʻzidan) deb nomlangan yashirin guruh Rim imperiyasining hukmronligiga qarshi kurashda ochiq jang maydonida emas, balki yashirin suiqa-sdlar va terror usullaridan keng foydalangan. Ular aholi orasida qoʻrquv tarqatish va hokimiyat vakillarini yoʻq qilish orqali qarshilik koʻrsatishni maqsad qilgan.

Oʻrta asrlarda diniy asosdagi ekstremizm yanada kuchaygan. Salib yurishlari davrida xristian olami bilan musulmon olami oʻrtasidagi qarama-qarshilik nafaqat harbiy toʻqnashuvlar, balki diniy murossasizlik, majburiy diniy qarashlarni singdirish va aholini qatagʻon qilish kabi koʻrinishlarda namoyon boʻlgan. Shu davrda islom olamida ham baʼzi radikal oqimlar vujudga kelgan boʻlib, ular oʻz eʼtiqodlarini kuch bilan tarqatishni, boshqa mazhab va diniy qarashlarni butunlay inkor etishni yoʻlga qoʻygan.

XIX asrga kelib, ayniqsa Yevropada siyosiy ekstremizm yangi bosqichga koʻtarilgan. Anarxistik harakatlar bir qator mamlakatlarda davlat rahbarlariga suiqa-sdlar uyushtirgan, xalq orasida vahima tarqatish orqali oʻz gʻoyalarini amalga oshirishga uringan. Rossiya imperiyasida narodniklar, Fransiyada anarxistlar, Italiyada “qizil brigadalar” kabi guruhlar terrorizmni siyosiy kurashning asosiy usuliga aylantirgan. XX asrda esa millatchilik, mustamlakachilikka qarshi kurash, mafkuraviy qarama-qarshiliklar fonida terrorizm yangi – koʻpincha davlatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan yoki uyushtiriladigan tus olgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi mustamlaka davrlarida koʻplab milliy ozodlik harakatlari terror usullariga murojaat qilgan boʻlsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida terrorizm global xarakter kasb etgan. “Al-Qoida”, “IShID” (Iroq va Shom islom davlati) kabi tashkilotlar oʻz taʼsir doirasini butun dunyoga yoyib, milliy davlat chegaralarini tan olmaydigan, transchegaraviy tarmoqlarga aylangan. Ular zamonaviy axborot texnologiyalaridan, ijtimoiy tarmoqlardan, yashirin moliyaviy oqimlardan foydalanib, dunyoning turli mintaqalarida hujumlar uyushtirish, yangi tarafdorlarni jalb qilish va oʻz

mafkurasini tarqatish imkoniyatiga ega bo'lgan. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ekstremizm va terrorizm hech qachon bir joyda, bir mintaqada yoki bir din yoki millat doirasida to'xtab qolmagan, aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik, adolatsizlik va ma'naviy bo'shliq yuzaga kelgan har qanday muhitda o'ziga qulay sharoit topgan.

Zamonaviy ekstremizm va terrorizm o'tgan asrlardagilardan nafaqat miqyosi, balki shakli, usullari, tashkiliy tuzilishi va tarqalish tezligi jihatidan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda ekstremizm asosan to'rt asosiy shaklda namoyon bo'lmoqda: diniy, siyosiy, millatchilik (etnik) va kiberekstremizm. Diniy ekstremizm – bu muayyan diniy e'tiqodni mutlaq haqiqat deb e'lon qilib, boshqa diniy qarashlarni butunlay inkor etish, ularga nisbatan murosasizlik va zo'ravonlikni oqlovchi mafkuraviy oqimdir. Ayniqsa, so'nggi yigirma yillikda diniy ekstremistik tashkilotlar o'z ta'sirini Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrikaning Sahel mintaqasi, Janubiy Osiyo va hatto Yevropaning ayrim hududlariga qadar kengaytirgan. Bu tashkilotlar diniy matnlarni qasddan noto'g'ri talqin qilish, tarixiy kontekstdan ajratilgan holda ayrim hukmlarni mutlaqlashtirish va o'z siyosiy maqsadlariga diniy qoplamalar berish yo'li bilan faoliyat yuritadi.

Siyosiy ekstremizm esa davlat tuzumini konstitutsiyaviy bo'lmagan usullar bilan o'zgartirish, mavjud hokimiyatni kuch bilan ag'darish, parlament va boshqa demokratik institutlarni ishdan chiqarishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu ko'rinishdagi ekstremizm ko'pincha totalitar mafkuralar, avtoritar rejimlar yoki radikal oppozitsion guruhlar bilan bog'liq bo'ladi. Millatchilik ekstremizmi esa bir millat yoki irqni boshqalardan ustun qo'yish, boshqa millat vakillariga nisbatan nafrat uyg'otish, ularga nisbatan zo'ravonlik va kamsitishni targ'ib qilish orqali namoyon bo'ladi. Bu turdagi ekstremizm ko'p millatli davlatlarda etnik to'qnashuvlarni kuchaytirish, separatizmni qo'llab-quvvatlash va fuqarolar o'rtasida nafratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kiberterrorizm esa XXI asrning eng yangi va tez rivojlanayotgan tahdididir. U davlatning muhim axborot tizimlariga, moliyaviy infratuzilmaga, transport boshqaruvi tizimlariga, energetika tarmoqlariga va harbiy ob'ektlarga hujum qilish orqali jamiyatni falaj qilishni maqsad qiladi. Kiberterrorizmning xavfi shundaki, uning amalga oshirilishi uchun jismoniy chegaralarni kesib o'tish, katta moliyaviy resurslar yoki ko'plab qurolli tayyorgarlik talab etilmaydi. Birgina kompyuter va internet tarmog'iga ulanish imkoniyati orqali butun bir mamlakatning hayotiy tizimlariga zarar yetkazish mumkin. Zamonaviy terrorizm yana bir muhim xususiyati bilan ajralib turadi – u global axborot makonidan foydalanishda nihoyatda mahoratli.

Terroristik tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlar, Telegram kanallari, shifrlangan messenjerlar, videoxostinglar orqali o'z mafkurasini tarqatadi, yangi a'zolari jalb qiladi, hujumlarni jonli efir orqali tarqatib, qo'rquv ta'sirini bir necha barobar oshiradi. Ular psixologik operatsiyalar, dezinformatsiya, provokatsiyalar orqali jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qiladi, hukumatlar va xalqaro tashkilotlarni o'z harakatlariga bo'ysundirishga harakat qiladi. Shuningdek, terrorizmning zamonaviy ko'rinishlarida "yolg'iz bo'ri" deb ataladigan, hech qanday tashkiliy tuzilmaga rasman a'zo bo'lmagan, ammo ekstremistik mafkuralar ta'sirida yakka tartibda hujumlar uyushtiruvchi shaxslar alohida xavf tug'dirmoqda. Bunday hujumlarni oldindan aniqlash va oldini olish an'anaviy terrorizmga qarshi kurash usullariga qaraganda ancha murakkabdir.

Xulosa: Ekstremizm va terrorizm zamonaviy jamiyatning eng jiddiy tahdidlaridan biridir. Ularning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashish uchun har bir davlat o'z xavfsizlik siyosatini mustahkamlashi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi va yoshlarni radikal mafkuralardan himoya qilishi lozim.

Bu illatlarga qarshi kurash shunchaki harbiy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Eng muhim yo'l – jamiyatda ekstremistik g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, ta'lim va axborot makonida radikalizmning oldini olish, yoshlarni ilm-fan,

madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotga yo‘naltirishdir. Har bir fuqaro tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida o‘z hissasini qo‘shishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Huntington S. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster.
2. Juergensmeyer M. (2000). Terror in the Mind of God: The Global Rise of Religious Violence. University of California Press.
3. Rapoport D. (2004). The Four Waves of Modern Terrorism. University of California.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni.